

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI GIPOTAKSEMIK QO‘SHMA GAP TURLARI CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

Madinabonu Shavkatovna Sodiqova

O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti, xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi

1-kurs talabasi

@mail: madinabonusodiqova34@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon tilshunosligining sintaksis bo‘limida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan gipotaksemik qo‘shma gaplar mavzusi bo‘yicha tahlil olib boriladi. Ingliz hamda o‘zbek tillaridagi ergashgan qo‘shma gap turlari chog‘ishtirma tahlil ostiga olinib, ikki tildagi ushbu gap turlarining o‘xshash va farqli jihatlari muhokama qilinadi. Tahlil jarayonida turli darslik, mashhur tilshunos olimlar maqolalaridan hamda badiiy adabiyotlardan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: gipotaksemik qo‘shma gap, ergash gap, bosh gap, bog‘lovchi vosita, subordinativ bog‘lanish, allomorfik jihat, ega ergash gapli qo‘shma gap, hol ergash gapli qo‘shma gap, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap.

ABSTRACT

This article analyzes the subject of hypotaxemic compound sentences, which are important in the syntax department of world linguistics. The types of complex sentences in English and Uzbek are compared. Furthermore, similar and different aspects of these types of sentences in both languages are discussed. Various textbooks, articles by famous linguists and literary works are used in the course of analysis.

Keywords: *hypotaxemic compound sentences, the subordinate clause, the principal clause, complex sentence, allomorphic aspect, subject clauses, adverbial clauses, object clauses.*

KIRISH

Fanlar taraqqiyotiga nazar tashlasak, u go‘yo to‘lqinlar silsilasidan tashkil topgandek ko‘rinadi. U yoki bu fan muayyan rivojlanish bosqichlariga ega bo‘lib, har bir bosqichda o‘rganilgan obyektga turli nuqtai nazardan yondashilganligining guvohi bo‘lamiz[1;196]. Darhaqiqat, har qanday soha bo‘lsin turli olimlar tomonidan asrlar o‘tgan sari turlicha yondashiladi: ko‘plab tadqiqotlar olib boriladi, yangi fikr-g‘oyalar ilgari suriladi, tegishli davr holatidan kelib chiqib o‘ziga xos ayrim o‘zgartirishlar kiritiladi. Shu kabi o‘zbek tilshunosligimiz ham asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Shunga qaramay bu sohaning turli aspektlarida hali ham dolzarbligini saqlab qolgan va yana-da kengroq o‘rganilishi talab qilinadigan mavzular bisyor. Jumladan, qo‘shma gaplar mavzusi ham ana shunday til unsurlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida qo‘shma gap sintaksisi muammosi 60- yillardan buyon o‘rganib kelinadi[1;199]. Ko‘plab tilshunos olimlarimiz o‘z tadqiqotlari, asarlari orqali bu soha rivojiga hissa qo‘shdilar va qo‘shib kelmoqdalar. Keling, ushbu maqolamizda qo‘shma gaplardan ergashgan qo‘shma gap turlari haqida so‘z yuritamiz, ingliz tili va o‘zbek tilidagi gipotakseмик qo‘shma gaplarning o‘ziga xos ayrim jihatlarini tahlil qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma‘lumki, ergashgan qo‘shma gaplarni turlarga ajratishda qaysidir mezonlarga tayaniladi. N.Mahmudov o‘zbek tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplarni valentlik nazariyasi asosida tahlil qilar ekan, bosh gap predikati valentligini ikki turga - kuchli va kuchsiz valentliklarga ajratadi. Predikat valentliklarini bunday turlarga ajratish ergash gapli qo‘shma gaplarni ikki turga - havola bo‘lakli va havola bo‘laksiz gaplarga bo‘lishga imkon beradi[1;203]. O‘zbek tilida ergash gap bosh gapga nisbatan qanday funksiyani bajarishligiga ko‘ra ega ergash gapli qo‘shma gaplar, kesim ergash gapli qo‘shma gaplar, aniqllovchi ergash gapli qo‘shma gaplar,

to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar va hol ergash gapli qo'shma gaplarga bo'linadi. Ingliz tilida ham ergashgan qo'shma gaplar shunday turlarga ajratiladi: "According to their grammatical function subordinate clauses are divided into subject, predicative, attributive, object, and adverbial clauses[2;282]". Endi bu qo'shma gap turlarini misollar bilan ko'rib chiqsak.

Subject clauses perform the function of subject to the predicate of the principal clause[2;282]. Demak, ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham bosh gap kesimiga nisbatan ega vazifasini bajargan ergash gap qatnashgan qo'shma gapga ega ergash gapli qo'shma gap deyiladi.

Ing. *All we had was Simon Finch*[3;4]. (a)

Ing. *She would quiver with pride to have a father **who** knew such things*[4;6].

O'zb. *Kim qattiq harakat qilsa, o'sha g'alaba qozonadi.*

O'zb. *Shu aniqki, dunyoda hech kim abadiy qolmaydi.*

E'tibor beradigan bo'lsak, ingliz tilida ham(who, what, that, whether,etc.), o'zbek tilida ham(kim-o'sha, shu va b.) ega ergash gapni bosh gapga bog'lashda ba'zi ko'rsatish olmoshlari, nisbiy so'z kabilardan foydalanilgan.

Predicative clauses perform the function of a predicative[2;283]. Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga kesim ergash gapli qo'shma gap deyiladi.

Ing. *This is **what** it means to be a woman in this world*[4;7].

Ing. *The truth is, he didn't even hold you until you were a month old*[4;10].

O'zb. *Bu vaziyatda eng to'g'ri yo'l **shuki**, sen bor haqiqatni unga aytishing kerak.*

Object clauses perform the function of an object to the predicate-verb of the principal clause[2;284]. Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan to'ldiruvchining mazmunini izohlab, konkretlashtirib keluvchi gaplar to'ldiruvchi ergash gap deyiladi.

Ing. *She did not know **what** this word meant*[4;5].

Ing. *The wives demanded **that** he throw her out*[4;7]

O‘zb. *Asta- sekin amin bo‘ldikki, qiziqarli va kutilmagan fikrlarga, ajoyib xayollarga boy bo‘lgan Dill sehrigar Merlinga o‘xshab ketar ekan*[5;12].

Attributive clauses serve as an attributive to a noun(pronoun) in the principal clause[2;286]. Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchini izohlab, to‘ldirib keluvchi ergash gap aniqlovchi ergash gap deyiladi.

Ing. *He owned a cinema, **which** Mariam had never seen, but at her insistence Jalil had described it to her*[4;6].

O‘zb. *U **shunday** ayol ediki, mahalladagi barcha insonlar havas qilardi.*

Adverbial clauses perform the function of an adverbial modifier. It can modify a verb, an adjective or an adverb in the principal clause [2;289]. Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, payti, holati, miqdor-darajasi kabilarni anglatuvchi gaplarga hol ergash gapli qo‘shma gap deyiladi. Ergash gapning bu turi boshqalariga qaraganda ancha keng qamrovlidir. Hol ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘z ichida ham bir qancha turlarga ajratish mumkin.

Adverbial clauses of time(Payt munosabatidagi hol ergash gapli qo‘shma gap):

Ing. *Nana smiled demurely **when** he said this*[4;6].

Ing. *As Nana told the story, Mariam sat on her lap*[4;9].

O‘zb. *Hamma mehmonlar yetib **kelgach**, uy egalari taom tortishdi.*

Adverbial clauses of place(O‘rin-joy munosabatidagi hol ergash gapli qo‘shma gap):

Ing. ***Wherever** you go, you will encounter kind people in Uzbekistan.*

O‘zb. *Akang **qayerda** bo‘lsa, sen ham **o‘sha** joyga borasan.*

Adverbial clauses of cause(Sabab munosabatidagi hol ergash gapli qo‘shma gap):

Ing. *We have brought you here **because** we have some very good news to give you*[4;31].

O‘zb. *Shimol va Janub o‘rtasidagi nizo Saymonning tepa sochini tikka qilgan bo‘lar edi, **negaki** urush uning avlodlarini yerdan tashqari boridan mahrum qilgandi*[5;5].

Adverbial clauses of purpose(Maqsad munosabatidagi hol ergash gapli qo'shma gap):

Ing. *I crouched against the wall of the gallery **so that** I should not be seen*[2;293].

O'zb. *Har bir ishni ehtiyotkorlik bilan bajaring, **toki** ortiqcha muammo tug'ilmasin.*

Adverbial clauses of condition(Shart munosabatidagi hol ergash gapli qo'shma gap):

Ing. ***If** you want to avoid the risks of passive smoking, you can take some simple precautions*[6;100].

O'zb. ***Agar** hodisaning tagiga yetmoqchi bo'lsak, hammasi Endryu Jeksondan boshlangan dedim men*[5;3].

Adverbial clauses of concession(to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap):

Ing. ***Though** she would live the first fifteen years of her life within walking distance of Herat, Mariam would never see this storied tree*[4;6].

O'zb. *Yordam bersam ham, ishni tugata olmadi*[7;221].

Adverbial clauses of result(Natija munosabatidagi hol ergash gapli qo'shma gap):

Ing. *The load was so heavy, **that** he could not lift it*[7;219].

O'zb. *Bizning onamiz ikki yoshligimda olamdan ko'z yumgandi, **shuning uchun** men judolikni his qilmaganman*[5;8].

Adverbial clauses of manner(Ravish ergash gapli qo'shma gap):

Ing. *She never dared say to Nana **how much** she disliked her talking this way about Jalil*[4;6].


O'zb. *U **shu darajada** to'g'ri va rostgo'y inson ekanki, xudodan boshqa hech kimning so'ziga quloq solmas ekan*[5;18].

Adverbial clauses of comparison(Qiyos ergash gapli qo'shma gap):

Ing. *He was white and jaded, **as if** he hadn't slept for many nights*[7;294].

O'zb. *U juda ham xotirjam edi, **go'yoki** hech nima sodir bo'lmagandi.*

NATIJALAR



MUHOKAMA

Biz yuqorida gipotakseмик qo'shma gap turlarini ko'rib chiqdik va guvohi bo'lganimizdek, ingliz va o'zbek tillarida gap turlari o'xshash, balki bir xil desak ham xato bo'lmas. Biroq ular o'rtasida ayrim allomorfik jihatlar ham mavjud. Misol uchun, ingliz tilida ergash va bosh gap o'zaro asyndetic bog'lanishi, ya'ni hech qanday bog'lovchi vositalarsiz bog'lanishi mumkin(a). Biroq o'zbek tilida hech qanday bog'lovchi vositasiz ergash gapni bosh gapga bog'lash mumkin emas, chunki hech bo'lmaganda kesim ma'lum bir grammatik shaklda bo'lishi talab qilinadi. Bundan tashqari bu ikki til o'rtasida farqli jihatlar mavjudligini shunda ham ko'ramizki, doim ham bir turdagi gipotakseмик qo'shma gaplarni ayni tuzilishda, ya'ni politaksema ko'rinishida tarjima qila olmaymiz. Masalan, "I know the man **who** wrote this article" gapini o'zbek tiliga "Men bu maqolani yozgan kishini bilaman"

holida tarjima qilinadi va bunda qo'shma gapni monotaksemaga aylanganini ko'ramiz. Yana yuqorida chog'ishtirish maqsadida hol ergash gapli qo'shma gaplarni ayrim turlarga bo'lib, ikki tilda ham misollar bilan berdik. Bunda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap deb nomlangan qo'shma gap turi manbalar asosida taqdim etildi, biroq bu atamani o'zbek tilidagi gipotaksemik qo'shma gap turi sifatida odatda uchratmaymiz.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarida gipotaksemik qo'shma gaplarni turlarga ajratishda bir xil mezonlarga tayanilar ekan. Ya'nikim, ergash gapning bosh gapga yoki uning biror bo'lagiga nisbatan bajargan vazifasidan kelib chiqib, ergashgan qo'shma gaplarni ega, kesim, aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarga ajratish mumkin. Bu turlarga ajratishda bosh gap qismida qatnashgan ko'rsatish olmoshlari, nisbiy so'zlarning gapdagi vazifasini aniqlash ham muhim ekan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulhamid Nurmonov. Tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolari bo'yicha tanlangan maqolalar.
2. Kaushanskaya V.I. et al. A Grammar of the English Language. - L., 1963
3. Harper Lee. To kill a mockingbird.1960.
4. Hosseini Khalid. A thousand splendid suns. New York. 2007.
5. Harper Li. Mazaxchini o'ldirish.-T.2023
6. Kirkpatrick Betty, Rebecca Mok. Read and understand. Singapore.2007.
7. O'tkir Yusupov. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – T.,2013.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.,1995.